



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

TARJIMADA KONNOTATIV MA'NONING YO'QOLISH, O'ZGARISH, KUCHAYISH VA NEYTRALLASHISH MASALALARI

Mustofakulova Maftuna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjima jarayonida konnotativ ma'noning yo'qolish, o'zgarish, kuchayish va neytrallashish hodisalari zamonaviy tarjimashunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda konnotativ ma'noning turli transformatsiyalarga uchraydigan holatlari, ularning yuzaga kelish sabablari va natijalarini ilmiy asoslash hamda pragmatik ekvivalentlikka erishish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola tarjimada konnotativ ma'noni saqlab qolish va uni maqsadli tildagi imkoniyatlar doirasida to'liq yetkazish usullari, kompensatsiya texnikalari va tarjimonning lingvokulturologik kompetensiyasining ahamiyati masalalariga bag'ishlangan. Ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy adabiyot asarlaridan olingan misollar asosida konnotativ transformatsiyalarning amaliy ko'rinishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konnotativ ma'no, tarjima, ekvivalentlik, pragmatik ta'sir, konnotativ yo'qolish, konnotativ o'zgarish, konnotativ kuchayish, konnotativ neytrallashish, kompensatsiya usuli, lingvokulturologiya.

ПРОБЛЕМЫ УТРАТЫ, ИЗМЕНЕНИЯ, УСИЛЕНИЯ И НЕЙТРАЛИЗАЦИИ КОННОТАТИВНОГО ЗНАЧЕНИЯ В ПЕРЕВОДЕ

Мустафакулова Мафтуна

Джизакский государственный педагогический университет, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются явления утраты, изменения, усиления и нейтрализации коннотативного значения в процессе перевода с точки зрения современной теории переводоведения. В исследовании рассматриваются случаи различных трансформаций коннотативного значения, научное обоснование причин их возникновения и результатов, а также вопросы достижения прагматической эквивалентности. Статья посвящена методам сохранения коннотативного значения в переводе и его полной передачи в рамках возможностей целевого языка, техникам компенсации и важности лингвокультурологической компетенции переводчика. На основе примеров из произведений художественной литературы на английском и узбекском языках проанализированы практические проявления коннотативных трансформаций.

Ключевые слова: коннотативное значение, перевод, эквивалентность, прагматическое воздействие, утрата коннотации, изменение коннотации, усиление коннотации, нейтрализация коннотации, метод компенсации, лингвокультурология.

ISSUES OF LOSS, TRANSFORMATION, INTENSIFICATION, AND NEUTRALIZATION OF CONNOTATIVE MEANING IN TRANSLATION

Mustofakulova Maftuna

Jizzakh State Pedagogical University, Senior Lecturer

Abstract

This article analyzes the phenomena of loss, shift, amplification, and neutralization of connotative meaning in the translation process from the perspective of modern translation theory.

The study examines cases of various transformations of connotative meaning, scientific justification of the causes of their occurrence and results, as well as issues of achieving pragmatic equivalence. The article is devoted to methods of preserving connotative meaning in translation and its full transmission within the framework of the target language capabilities, compensation techniques, and the importance of the translator's linguocultural competence. Based on examples from works of fiction in English and Uzbek, practical manifestations of connotative transformations are analyzed.

Keywords: connotative meaning, translation, equivalence, pragmatic impact, loss of connotation, connotation shift, connotation amplification, connotation neutralization, compensation method, linguoculturology.

Tarjima jarayoni nafaqat tildagi denotativ ma'nolarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish, balki so'z va iboralarda mujassamlashgan konnotativ, emotiv va madaniy qatlamlarni ham saqlab qolish muammosini o'z ichiga oladi. Zamonaviy tarjimashunoslikda konnotativ ma'ning tarjimadagi taqdiri alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanib kelmoqda. Bu yo'nalishning dolzarbligi shundaki, aslyat matni bilan tarjima matni o'rtasida ko'pincha semantik teng qiymatlilik saqlanib qolsa-da, konnotativ va pragmatik qatlamda chuqur farqlar yuzaga keladi.

L. S. Barkhudarov ta'kidlaganidek, "tarjima qilish jarayonida yo'qotishlar muqarrar, ammo ularning darajasini ilmiy yo'l bilan boshqarish mumkin" [1, b. 190]. Shu bois tarjima jarayonida konnotativ ma'ning yo'qolish, o'zgarish, kuchayish va neytrallashtirish hodisalarini ilmiy tahlil qilish zamonaviy tarjimashunoslikning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tarjimada konnotativ ma'ning o'zgarishi muammosini o'rganishda eng muhim nazariy asos sifatida ekvivalentlik nazariyasi xizmat qiladi. V. N. Komissarovning "Tarjima nazariyasi" asarida ekvivalentlikning besh darajasi ajratilgan bo'lib, ularning eng yuqori darajasi pragmatik ekvivalentlik hisoblanadi [2, b. 51]. Pragmatik ekvivalentlikka erishish esa ko'pincha aslyatdagi konnotativ ma'ning to'liq saqlanib qolishini talab qiladi, ammo bu talabni bajarish lingvokulturologik tafovutlar sababli har doim ham mumkin bo'lavermaydi.

E. A. Nida o'zining "Toward a Science of Translating" asarida "dinamik ekvivalentlik" tushunchasini kiritib, tarjimonning asosiy maqsadi matnni qabul qiluvchi o'quvchida aslyat matni o'quvchisiga o'xshash ta'sir uyg'otishdan iborat, deb ta'kidlaydi [3, b. 159]. Demak, ta'sir ekvivalentligi konnotativ ma'noni uzatishning asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Konnotativ ma'ning o'zgarishi. Konnotativ ma'ning o'zgarishi (connotation shift) aslyatdagi birlikning konnotativ yuklamasi tarjimada saqlanib qolmay, uning o'rniga boshqa xildagi konnotatsiya paydo bo'lish hodisasidir. Bu jarayon konnotativ ma'ning to'liq yo'qolishidan farq qiladi: ma'no yo'qolmaydi, lekin uning sifati, yo'nalishi yoki intensivligi o'zgaradi.

Konnotativ ma'ning o'zgarishi ko'pincha madaniy tafovutlar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. A. D. Petrenkoning tadqiqotida etnokonnotatsiya tushunchasi asosida ko'rsatilishicha, turli madaniyatlarda bir xil denotativ ma'noga ega bo'lgan so'zlar butunlay boshqa konnotativ yukka ega bo'lishi mumkin [4, b. 78]. Masalan, ingliz tilidagi "dragon" so'zi G'arb madaniyatida yovuzlik, xavf va yo'q qiluvchi kuch konnotatsiyasini anglatadi, Sharq madaniyatida "ajdarho" obrazi ko'pincha kuch, qudrat va saltanatning ramzi sifatida qaraladi. Shu sababli bu so'zni tarjima qilishda aslyatdagi salbiy konnotatsiya tarjimada nisbiy ijobiy yoki neytral konnotatsiyaga aylanib qolishi mumkin.

Konnotativ o'zgarishning yana bir ko'rinishi ijtimoiy va uslubiy konnotatsiyaning siljishidir. P. Newmark uslubiy konnotatsiyaning tarjimada o'zgarishini "stilistik noekvivalentlik" deb ataydi [5, b. 70]. Masalan, ingliz tilidagi so'zlashuv nutqiga xos "gonna" (going to), "wanna" (want to) kabi shakllar o'zbek tiliga tarjima qilinganda ularning norasmiy, yosh va zamonaviy konnotatsiyasini to'liq saqlab qolish qiyin. O'zbek tilidagi "ketmoqchiman", "xohlayman" kabi shakllar grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, inglizcha shakllarning stilistik konnotatsiyasidan

mahrum qoladi.

Mazkur nazariy qarashlarni ingliz adabiyotidagi Charles Dickensning “Oliver Twist” asaridan olingan “Please, sir, I want some more” jumlasini misolida ko‘rish mumkin. Ushbu jumla lug‘aviy jihatdan oddiy iltimos ma‘nosini anglatganda, uning konnotativ qatlamida bolakayning nochorligi, ochligi, jur‘ati va ijtimoiy zulmga qarshi ichki noroziligi mujassam [6]. Agar bu jumla oddiy tarzda “Iltimos, janob, menga yana bering” deb tarjima qilinsa, mazmun saqlansa-da, undagi hissiy drammatizm va achinish uyg‘otuvchi emotsional bo‘yoq to‘liq ifodalanmasligi mumkin.

Konnotativ ma‘noning yo‘qolishi. Tarjimada konnotativ ma‘noning yo‘qolishi (loss of connotation) — asliyatdagi so‘z yoki iborada mavjud bo‘lgan qo‘shimcha hissiy, baholovchi, madaniy yoki ekspressiv ma‘no qatlamining tarjimada ifodasiz qolish hodisasidir. Bu hodisa tilshunoslikda “konnotativ lakuna” deb ham ataladi. P. Newmark “A Textbook of Translation” asarida konnotativ yo‘qotishni tarjimaning eng keng tarqalgan muammolaridan biri sifatida ta‘riflaydi va uning asosiy sabablarini quyidagicha belgilaydi: madaniy tafovutlar, tillararo assotsiativ farqlar va tarjima tilida ekvivalent birlikning mavjud emasligi [7, b. 103].

Ingliz tilidagi “tea” so‘zini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida konnotativ ma‘noning yo‘qolishi kuzatilishi mumkin. Lug‘aviy jihatdan ushbu birlik o‘zbek tilida oddiy tarzda “choy” deb tarjima qilinadi. Biroq ingliz madaniyatida “tea” nafaqat ichimlik nomini, balki muayyan ijtimoiy-madaniy an‘anani ham ifodalaydi. Xususan, u ingliz madaniyatida dam olish, yaqin suhbat muhiti yoki “afternoon tea” kabi maxsus marosimlar bilan bog‘liq tushuncha sifatida qo‘llanadi.

O‘zbek tilida ham konnotativ ma‘noning namoyon bo‘lishini O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasida” asaridagi “Xullas, choyxona — o‘zimizning uy. Lekin hozir choy ichishga vaqtimiz yo‘q” jumlasida kuzatish mumkin. Ushbu gapda “choy ichish” iborasi faqat ichimlik iste‘mol qilish harakatini anglatmaydi, balki o‘zbek xalqining kundalik hayotida dam olish, suhbat qurish, yaqinlar bilan muloqot qilish, hordiq chiqarish kabi kengroq ijtimoiy-ma‘naviy mazmunni ifodalaydi.

Bu hodisani V. S. Vinogradov “konnotativ siljish” deb atagan bo‘lib, tarjimonning ongli yoki ongsiz ravishda asliyat konnotatsiyasini tarjima tili madaniyatining konnotatsiyasi bilan almashtirishini anglatadi [8, b. 18]. V. N. Teliyaning ta‘kidlashicha, madaniy-milliy konnotatsiyalar “tilning ichki shakli” sifatida namoyon bo‘lib, ularni boshqa til vositalarida to‘liq ifodalash deyarli mumkin emas [9, b. 141].

Konnotativ ma‘noning kuchayishi. Konnotativ ma‘noning kuchayishi (connotative amplification) — tarjimada asliyatdagi so‘z yoki iboradagi konnotativ yuklamaning kuchaytirib berilishi hodisasidir. Bu hodisa ko‘pincha tarjimon matnning emotsional ta‘sirini saqlab qolish yoki kuchaytirish maqsadida asliyatdagi neytralroq birlikni tarjima tilida kuchliroq uslubiy bo‘yoqqa ega ekvivalent bilan almashtirganda yuz beradi.

J. L. Malone bu holatni amplifikatsiya transformatsiyasi sifatida izohlaydi hamda tarjimonning ongli ravishda ma‘no va hissiy kuchaytirishga yo‘naltirilgan faoliyatini tahlil qiladi [10, b. 64]. Geoffrey Leech esa konnotatsiyaning semantik hajmiga e‘tibor qaratib, ayrim so‘zlarning asosiy ma‘nosidan tashqari kuchli ijobiy yoki salbiy assotsiativlarni o‘zida mujassamlashtira olishini qayd etadi [11, b. 26].

Masalan, Jane Austen asarlarida “proud” so‘zi ko‘pincha nisbiy neytral ma‘noda ishlatiladi. “Pride and Prejudice” romanidagi “He is proud” [12] jumlasida bu so‘z Mr. Darcy haqida gapirilganda uning shaxsiy qadriyatlarini ifodalaydi. Biroq bu so‘z o‘zbek tiliga “mag‘rur” deb tarjima qilinganda u ko‘proq salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, takabburlik, boshqalarni pastga qarash kabi ma‘nolarni beradi. Shu tariqa, asliyatdagi nisbatan neytral konnotatsiya tarjimada kuchaytirilgan salbiy konnotatsiyaga aylanadi.

Konnotativ neytrallashtirish. Konnotativ neytrallashtirish (connotative neutralization) — tarjima jarayonida asliyatdagi kuchli ekspressiv, emotsional yoki baholovchi konnotatsiyaga ega birlikning tarjima tilida neytral birlikka aylanishi hodisasidir. Y. I. Retsker bu hodisani tarjimaning

asosiy transformatsiyalari qatorida qayd etadi va uni “stilistik neytrallashish” nomini beradi [13, b. 61].

Tarjimadagi konnotativ neytrallashish hodisasini “Jane Eyre” asari misolida ham aniq kuzatish mumkin. Ushbu romanda muallif Charlotte Bronte qahramonlarning ichki kechinmalari, ijtimoiy mavqei va ruhiy holatini ko‘pincha kuchli konnotativ birliklar orqali ifodalaydi. Tarjima jarayonida esa bu birliklar ko‘pincha neytral shaklga tushib qoladi.

Masalan, asarda Jane o‘zining og‘ir bolalik hayotini eslar ekan, “I was a discord in Gateshead Hall” deydi [14, b. 18]. Bu yerda “discord” so‘zi nafaqat “nomuvofiqlik” ma‘nosini, balki begonalik, ortiqchalik va ruhiy yolg‘izlik konnotatsiyasini ham beradi. Agar ushbu jumla “Men Geytshed xonadonida ortiqcha edim” tarzida tarjima qilinsa, umumiy mazmun saqlanadi, ammo “discord” orqali berilgan iztirob, ichki keskinlik va ruhiy yolg‘izlik ohangi sezilarli darajada susayadi, ya‘ni konnotativ neytrallashish yuz beradi.

Konnotativ neytrallashishning oldini olish maqsadida tarjimonlar bir qator kompensatsiya usullaridan foydalanadilar. E. A. Nida va C. R. Taber “The Theory and Practice of Translation” asarida kompensatsiya usulini quyidagicha ta‘riflaydilar: agar matnning bir joyida konnotativ ma‘no yo‘qolsa, tarjimon uni matnning boshqa joyida munosib vositalar orqali qoplashi mumkin [15, b. 24].

Xulosa

Tarjimada konnotativ ma‘noning yo‘qolish, o‘zgarish, kuchayish va neytrallashish hodisalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning barchasi tarjimonning lingvokulturologik bilimi, pragmatik tahlili va ijodiy qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. Bu hodisalarni to‘g‘ri tasniflash va ularning yuzaga kelish sabablarini ilmiy asoslash tarjimashunoslikda konnotativ ma‘noni uzatish metodologiyasini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, konnotativ ma‘noning tarjimadagi transformatsiyalari nafaqat til tizimining farqlariga, balki madaniy va pragmatik omillarga ham bog‘liqdir. Tarjimon ushbu transformatsiyalarni to‘g‘ri boshqarish va yo‘qolgan konnotativ ma‘nolarni kompensatsiya usullari orqali qoplash orqali asliyat matnining pragmatik ta‘sirini maksimal darajada saqlashi mumkin.

Kelajakda bu sohada qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish, xususan, turli til juftliklari va janrlar bo‘yicha konnotativ transformatsiyalarni taqqoslash hamda sun‘iy intellekt yordamida tarjima jarayonida konnotativ ma‘noni avtomatik aniqlash va saqlab qolish texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Barxudarov L. S. Til va tarjima. — Moskva, 1975. — 190 b.
2. Komissarov V. N. Tarjima nazariyasi. — Moskva: Vysshaya shkola, 1990. — 253 b.
3. Nida E. A. Tarjima faniga tomon. — Leyden: E. J. Brill, 1964. — 331 b.
4. Petrenko S. Etnokonnotatsiya til manzarasining tarkibiy qismi sifatida. — Simferopol, 2000. — 198 b.
5. Newmark P. Tarjimaga yondashuvlar. — Oksford: Pergamon Press, 1981. — 200 b.
6. Dickens Ch. Oliver Twist. — London: Penguin Books, 1994. — 544 b.
7. Newmark P. Tarjima bo‘yicha darslik. — Nyu-York: Prentice Hall, 1988. — 292 b.
8. Vinogradov V. S. Tarjima: umumiy va leksik masalalar. — Moskva: KDU, 2006. — 240 b.
9. Teliya V. N. Nominativ birliklar semantikasining konnotativ jihati. — Moskva: Nauka, 1986. — 14 b.
10. Malone J. L. Tarjima san‘atida lingvistika fanining o‘rni. — Albany: SUNY Press, 1988. — 296 b.
11. Leech G. Semantika: ma‘no haqidagi fan. — London: Penguin Books, 1974. — 386 b.
12. Austen J. Mag‘rurlik va xurofot. — London: Penguin Classics, 2003. — 480 b.